



@buxdu_uz



@buxdu1



@buxdu1




www.buxdu.uz



E-ISSN 2181-1466

9 772181 146004



ISSN 2181-6875

9 772181 687004

10/2024

Научный вестник Бухарского государственного университета
Scientific reports of Bukhara State University



BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI



10/2024

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI
SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК БУХАРСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА

Ilmiy-nazariy jurnal

2024, № 10, oktabr

Jurnal 2003-yildan boshlab **filologiya** fanlari bo'yicha, 2015-yildan boshlab **fizika-matematika** fanlari bo'yicha, 2018-yildan boshlab **siyosiy** fanlar bo'yicha, **tarix** fanlari bo'yicha 2023-yil 29-avgustdan boshlab O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruriy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2000-yilda tashkil etilgan.

Jurnal 1 yilda 12 marta chiqadi.

Jurnal O'zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2020-yil 24-avgust № 1103-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Muassis: Buxoro davlat universiteti

Tahririyat manzili: 200117, O'zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy.

Elektron manzil: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

TAHRIR HAY'ATI:

Bosh muharrir: Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bosh muharrir o'rinbosari: Rasulov To'liqin Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor

Mas'ul kotib: Shirinova Mexrigiyo Shokirovna, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Kuzmichev Nikolay Dmitriyevich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor (N.P. Ogaryov nomidagi Moldova milliy tadqiqot davlat universiteti, Rossiya)

Danova M., filologiya fanlari doktori, professor (Bolgariya)

Margianti S.E., iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Indoneziya)

Minin V.V., kimyo fanlari doktori (Rossiya)

Tashqarayev R.A., texnika fanlari doktori (Qozog'iston)

Mo'minov M.E., fizika-matematika fanlari nomzodi (Malayziya)

Mengliyev Baxtiyor Rajabovich, filologiya fanlari doktori, professor

Adizov Baxtiyor Rahmonovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Abuzalova Mexriniso Kadirovna, filologiya fanlari doktori, professor

Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor

Barotov Sharif Ramazonovich, psixologiya fanlari doktori, professor, xalqaro psixologiya fanlari akademiyasining haqiqiy a'zosi (akademigi)

Baqoyeva Muhabbat Qayumovna, filologiya fanlari doktori, professor

Bo'riyev Sulaymon Bo'riyevich, biologiya fanlari doktori, professor

Jumayev Rustam G'aniyevich, siyosiy fanlar nomzodi, dotsent

Djurayev Davron Raxmonovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Olimov Shirinboy Sharofovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Umarov Baqo Bafoyevich, kimyo fanlari doktori, professor

Murodov G'ayrat Nekovich, filologiya fanlari doktori, professor

O'rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor

Navro'z-zoda Baxtiyor Nigmatovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Hayitov Shodmon Ahmadovich, tarix fanlari doktori, professor

To'rayev Halim Hojiyevich, tarix fanlari doktori, professor

Rasulov Baxtiyor Mamajonovich, tarix fanlari doktori, professor

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Quvvatova Dilrabo Habibovna, filologiya fanlari doktori, professor

Axmedova Shoira Nematovna, filologiya fanlari doktori, professor

Bekova Nazora Jo'rayevna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Amonova Zilola Qodirovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Hamroyeva Shahlo Mirjonovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Nigmatova Lola Xamidovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Boboyev Feruz Sayfullayevich, tarix fanlari doktori

Jo'rayev Narzulla Qosimovich, siyosiy fanlar doktori, professor

Xolliyev Askar Ergashovich, biologiya fanlari doktori, professor

Artikova Hafiza To'ymurodovna, biologiya fanlari doktori, professor

Hayitov Shavkat Ahmadovich, filologiya fanlari doktori, professor

Qurbonova Gulnoz Negmatovna, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Ixtiyarova Gulnora Akmalovna, kimyo fanlari doktori, professor

Rasulov Zubaydullo Izomovich, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Mirzayev Shavkat Mustaqimovich, texnika fanlari doktori, professor

Samiyev Kamoliddin A'zamovich, texnika fanlari doktori, dotsent

Esanov Husniddin Qurbonovich, biologiya fanlari doktori, dotsent

Zaripov Gulmurot Toxirovich, texnika fanlari nomzodi, professor

Jumayev Jura, fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent

Klichev Qybek Abdurasulovich, tarix fanlari doktori, dotsent

G'aybulayeva Nafisa Izattullayevna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

MUNDARIJA *** СОДЕРЖАНИЕ *** CONTENTS		
O‘ZBEK TILIGA DAVLAT TILI MAQOMI BERILGANLIGIGA 35 YIL TO‘LDI		
Shirinova M.Sh.	Ona tili – madaniyat ko‘zgusi	3
TILSHUNOSLIK *** LINGUISTICS *** ЯЗЫКОЗНАНИЕ		
Гулямова Ш.К.	Полифункционал сўзлар ва уларнинг семантик анализатори хусусида	5
Мамасолиев И.У.	Средства массовой информации как распространитель, стандартизатор и новатор языка	16
Yusupova M.B.	Digital innovations in lexicography: enhancing the representation of linguistic and cultural units	21
Seyidov M.M.	The Sihahul-Furs dictionary: a transcultural linguistic legacy	25
Kodirova M.T.	Ingliz tili biznes diskursida ironiya	32
Khudoyberdieva O.M.	The role of loanwords in English and Uzbek dance terminology	38
Fayzieva M.Ch.	Corpus linguistics as a data-driven approach to vocabulary instruction in inclusive environments	45
Berdiyeva R.K.	Frazeologizm pragmatik ma’nolarining matn ta’sirida o’zgarishi va ularning pragmatik-emotsionallik xususiyatlari	49
Bekbergenova G.U.	Lingvistik terminlarning polifunksionallik xususiyatlari	53
Bahriddinova Y.B.	Elektron lug‘atlarning ishlab chiqishi va ularning botanika terminologiya muhitidagi ahamiyati	57
Yuldasheva D.B.	The problem of word processing in the Uzbek language	62
Satimova D.N.	Jahon sotsiolektida substandard qatlam va uning tarkibi	66
Nurova Y.U.	O‘zbek xalq paremlarida kasb-kor, oziq-ovqat nomlarining etnolingvistik xususiyatlari	71
Mengliyeva M.B.	Aspektual ma’no ifodalovchi leksemalarning ingliz izohli lug‘atlaridagi talqinini takomillashtirish yo‘llari	75
Kayumova N.X.	“Yangiliklar” media janr va diskurs sifatida: genezis, ta’rif, tasnif, qiyos	80
Juraqobilova H.X.	Oriyentatsion metaforalarning lingvokognitiv xususiyatlari	85
Jumayev T.	Shakl yasovchi morfemalarning so‘z yasash imkoniyatlari	90
Hamroyeva N.N.	The pragmalinguistic nature of politeness in conflictuous communicative action	94
Bobozaripova M.E.	Jahon va o‘zbek tilshunosligidagi tezaurus lug‘atlar haqida	98
Ahmadova U.Sh.	Perifraza – lingvomadaniy hodisa sifatida	103
Achilova R.A.	Mutual differences of the linguistic concepts of allusion and reminiscence	108
Хайруллоева Г.Ф.	Модалликини ифодалашнинг семантик асослари	112
Сабирова С.О.	Современная роль и значение латинского языка в современном мире	117
ADABIYOTSHUNOSLIK *** LITERARY CRITICISM *** ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ		
Rajabov D.Z., Ro‘zmetova S.A.	Dostonlarda asrandi farzand tarbiyalash motivi	121

Turoпова P.Sh.	Badiyyatda shoira mahorati	124
Eshonqulova G.T.	Badiiy tarjima jarayonining o'ziga xos xususiyatlari	129
Ruziyeva D.N.	The image of father in the world literature	133
Mashrapova G.A.	Xalq inonchlarida safar motivi	137
Милованова Е.В.	Поле цвета в словарном представлении и его воплощение в художественном тексте (на материале рассказов Ю. Казакова)	142
Karimova Sh.K.	Ingliz va o'zbek she'riyatida parallel qurilma va teskari parallelizmning vazifalari	148
Israilov G'.B.	Sakkokiy g'azaliyotida majoziy tasvir va badiiyat	153
“NAVOIY GULSHANI”		
Ibotova M.O.	Chun kamoli ma'rifat kasb o'ldi, ne nuqson o'lum...	158
FALSAFA VA HUQUQ, SIYOSATSHUNOSLIK *** PHILOSOPHY, LAW AND POLITICAL SCIENCES *** ФИЛОСОФИЯ, ПРАВО И ПОЛИТОЛОГИЯ		
Баходиров Б.Б.	Глобаллашув жараёнида ижтимоий сиёсат тенденциялар ва акторларнинг шаклланиши ҳамда аҳамияти	161
Murtalibova M.M.	Yaqin Sharq mintaqasi: strategik ahamiyati, geosiyosati va zamonaviy xavfsizlikni ta'minlashning dolzarb muammolari	166
TARIX *** HISTORY *** ИСТОРИЯ		
Холов В.Ю.	Ўзбекистонда совет қатағон сиёсати инглиз матбуоти нигоҳида	173
Жуманазаров Х.С.	Миллий тиб тизимида даволаш анъаналари (1867-1917 йиллар)	179
Sirojov O.S., Sirojov Q.O.	Fashizmga qarshi urush yillarida Buxoro sanoati (1941-1945-yillar)	184
Jumaeva N.A.	Buxoro vohasi dehqonchilik an'analari tarixidan (XIX asr oxiri-XX asr boshlari)	191
Boltayev B.B.	Maktab muzeylarining ta'lim-tarbiya jarayonida tutgan o'rni (Buxoro viloyati misolida)	196
Utayeva F.X., Sharipova P.Q.	Buxoro viloyati iqtisodini rivojlantirishda yengil sanoatning o'rni	201
Axmedov S.B.	“Matlayi sa'dayn”dagi Temuriylarning diniy munosabatlarga oid siyosati bilan bog'liq ma'lumotlar tahlili	207
Babayarova Sh.Sh.	Hofiz Tanish Buxoriyning “Abdullanoma”(“Sharafnomayi Shohiy”) asari Buxoro xonligi tarixini o'rganishda muhim manba	212
PEDAGOGIKA *** PEDAGOGY *** ПЕДАГОГИКА		
O'ktamov M.O'.	Pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarining axborot kompetentligining mazmuni va mohiyati	216
O'ktamov M.O'.	Pedagogika OTM talabalarining axborot kompetentligini rivojlantirishning metodologik asoslari	221

MAKTAB MUZEYLARINING TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA TUTGAN O'RNI (BUXORO VILOYATI MISOLIDA)

Boltayev Bobir Baxtiyorovich,

Buxoro davlat universiteti

Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrasi katta o'qituvchisi t.f.f.d (PhD)

Annotatsiya. Mazkur maqolada mustaqillik yillarida Buxoro viloyatidagi ta'lim-tarbiya dargohlarida faoliyat olib borayotgan muzeylarning faoliyati, borasida erishilgan ko'pgina yutuqlar hamda kamchiliklarni tuzatishga qaratilgan sa'y-harakatlarning ahamiyati keng yoritilgan. Ayniqsa, muzeylarda saqlanayotgan buyumlarning maktab o'quvchilari tomonidan yig'ilishi bo'yicha bir qator tahlillar yoritilgan. Bundan tashqari, talim maskanlaridagi muzeylarning bir-biriga o'xshash va farqli tomonlari xususidagi fikr va mulohazalari ham keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Maktab o'lkashunoslik, tarbiya, Konstruktiv bo'lim maskani, sopol buyumlar, kashtachilik, zardo'zlik, metal buyumlar, ekspluatatsiya, muzey, muzeysunoslik, investitsiya.

РОЛЬ ШКОЛЬНЫХ МУЗЕЕВ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНО-ВОСПИТАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ (НА ПРИМЕРЕ БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ)

Аннотация. В статье подробно рассматривается деятельность музеев, расположенных при образовательных центрах Бухарской области в годы независимости. Особое внимание уделено достижениям в этой области и важности предпринимаемых мер по устранению выявленных недостатков. В частности, проведён анализ участия школьников в сборе музейных экспонатов. Кроме того, в статье приводятся мнения и комментарии, касающиеся сходств и различий в работе музеев, связанных с образовательными учреждениями.

Ключевые слова: краеведческая школа, образование, строительное отделение, керамика, вышивка, ювелирное дело, металлообработка, эксплуатация, музей, музееведение, инвестиции.

THE PLACE OF SCHOOL MUSEUMS IN EDUCATIONAL PROCESS (ON THE EXAMPLE OF BUKHARA REGION)

Abstract. The article provides a detailed analysis of the activities of museums located within educational centers in the Bukhara region during the years of independence. Special attention is given to achievements in this area and the importance of measures taken to address identified shortcomings. In particular, the article includes an analysis of students' participation in collecting museum exhibits. Additionally, it presents opinions and comments on the similarities and differences in the work of museums associated with educational institutions.

Keywords: local history school, education, construction department, ceramics, embroidery, jewelry, metalworking, operation, museum, museology, investment.

Kirish. Hozirgi kunda insoniyat hoyotida shiddat bilan global o'zgarishlar sodir bo'layotgan bir davrda, yosh avlodni ota-bobosi myerosi va tarixiga hurmat ruhida tarbiyalash, ularga to'g'ri yo'l ko'rsatish, adashmaslik, ilmiy bo'lish hamda zamondoshlaridan ortda qolmasliklari uchun bilim olish dargohi qatorida respublikamiz muzeylarining ham xizmati benihoya juda kattadir. Maktablar o'zining yosh avlod tarbiyasiga ta'sirchanligi va alohida ahamiyatga ega bo'lishi bilan birga yoshlarni dunyoqarashini shakllantirishda, ularni katta hayotga yo'naltirishda, ularni mafkuraviy tarbiyasida katta ta'sir ko'rsatadi. Maktablarda, asosan, o'lkashunoslik, tabiatshunoslik, yo'nalishidagi muzeylar bo'lib, mahalliy sharoitlarni, xo'jalik hayotni tasvirlaydi. Mazmun va mohiyati jihatidan ular bir-biridan kam farq qilishini ko'rishimiz mumkin. Maktab o'lkashunoslik muzeylarida ekspонатlar, asosan, o'quvchilar va o'qituvchilar tomonidan dala tadqiqotlari jarayonida yig'iladi. Lekin keyingi bosqichda bu jamlangan ekspонатlar tizimga solinmagan va ular asosida alohida ekspozitsiyalar yaratilmaganligi tajribali mutaxassislarning etishmasligidan dalolat byeradi. Natijada ilmiy, xronologik izchil ekspozitsiya yaratish bilan bog'liq qator muammolar yuzaga kelgan[1]. Ammo o'rganishlar shu narsani ko'rsatdiki, o'lkashunoslik muzeylari mavjud maktablarda boshqalariga nisbatan ta'lim-tarbiya jarayonlari bir qadar yaxshi yo'lga qo'yilgan.

Shuningdek, ushbu maktablarda gumanitar sohalariga qiziqish ham birmuncha oshganligi ko'proq salmoqni tashkil qiladi. Bizning vazifamiz, maktab o'lkashunoslik muzeylarini tashkil etishni targ'ib qilish va tashkil etilayotganlarga amaliy-nazariy ko'mak berishdan iborat bo'lmog'i lozim deb o'ylaymiz.

Sharq xalqlari ijtimoiy hayotida ta'lim va tarbiyaning bir-biri bilan uyg'un holda olib borilishi uzoq davrlardan buyon davom etib kelayotgan ma'rifiy an'anadir. Shu sababli maktab bolalariga turli bilimlardan saboq berish barobarida, yurtimizdagi turli xalqlarning turmush tarzi, urf-odatlar, madaniyati, axloqi kabi masalalar ham o'rgatib kelinadi. Maktab ommaviy tarbiya maskani bo'lib, unda turli usul va vositalar orqali o'quvchilarni komil inson qilib tarbiyalashga e'tibor qaratiladi. Muzeylar ham ma'naviy tarbiya vositalaridan biri hisoblanadi. Bu borada maktab muzeylarining o'rmini alohida qayd etish lozim. Ya'ni maktab muzeyi o'quvchiga o'zi tug'ilib o'sgan hudud haqida ma'lumot berish bilan birga, unda yurtni sevish, o'z tarixidan faxrlanish, buyuk allomalar ilmiy merosiga hurmat kabi tuyg'ularni shakllantirishga ko'maklashadi.

O'rganishimiz jarayonida shu narsa aniq bo'ldiki ko'pgina maktablarda tashkil etilgan muzeylar, asosan, o'lkashunoslik xarakteriga ega bo'lib, bunday muzeylar, asosan, maktabdagi tarix fani o'qituvchilarining faoliyati bilan bog'liqdir. Respublikamizda faoliyat olib borayotgan o'lkashunoslik muzeylarining mazmuniga ko'ra uch xil turlari mavjud bo'lib, ular, ilmiy (davlat), jamoat va maktab o'lkashunosligi kabilardan iboratdir.

O'z navbatida maktab o'lkashunosligi geografik, biologik, tarixiy, adabiy, zoogeografik, botanik o'lkashunoslik kabi turlarga bo'linadi [2]. Demak, maktab muzeylarida faqat ijtimoiy fanlarga oid emas, balki boshqa fan sohalariga oid ekspozitsiyalar, eksponatlar ham mavjud bo'lishi mumkin.

Adabiyotlar tahlili va tadqiqot metodologiyasi. Taniqli muzeyshunos olim Z.A.Ogrizkolarning fikriga ko'ra, maktab muzeylari ekspozitsiyasi o'lkaning tabiati, tabiiy boyliklari, tarixi, o'lka madaniyati haqidagi ma'lumotlarni etkazib berishni ko'zda tutadi[3]. Bu esa maktab o'quvchilariga fanning turli sohalariga oid ma'lumotlar bilan amaliyot jarayonida tanishish boorish imkoniyatini beradi.

O'lkashunoslikka oid muzeylarni maktabda tashkil etishda, uning ekspozitsiyasini boyitishda o'quvchilar yordamidan foydalanilishi sababli, o'sib kelayotgan yosh avlodni fan sohalarini o'zlashtirishlari jarayonida, ularda ijobiy o'zgarishlar sodir bo'lishini kuzatish mumkin. Ayniqsa, o'lkashunoslik muzeyi tashkil qilingan aksariyat maktablarda o'quvchilarning ijtimoiy fanlardan yaxshi bilim olishlari mustaqil ishlashga, o'qishga, tarixni, madaniyatni o'rganishga qiziqishlari ortishi aniqlangan. Bu esa o'quvchilar dunyoqarashini rivojlanishi va tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Maktab o'lkashunoslik muzeylari o'sib kelayotgan yosh avlodni dunyoqarashini kengaytirish va o'z fuqarolik nuqtai-nazarini erkin bildirishga ko'maklashadi. Muzeylar orqali zamonaviy bilimlarni yaxshi ta'lim berish, muzey-pedagogikasini shakllantirish, bugungi kunning asosiy talabi deb hisoblash o'rinli bo'lardi. Ta'lim va tarbiyada o'lkashunoslik muzeylarining ahamiyati muhim o'ringa egaligini unutmaslik lozim [1].

Maktab o'lkashunoslik muzeylari davlat va jamoat tashkilotlarining shu turdagi muzeylaridan quyidagilar bilan farq qiladi. Jumladan, ekspozitsiya materiallarining ko'p qismi maktab va u joylashgan hudud tarixi bilan bog'liq. Shuningdek, ayrim eksponatlar, masalan, maketlar o'quvchi va o'qituvchilarning o'zlari tomonidan tayyorlanadi. Nihoyat ayrim eksponatlar yosh o'lkashunoslarning o'lka tabiatiga oid to'plagan ma'lumotlaridan iborat bo'ladi[3]. Maktab o'lkashunoslik muzeylari ekspozitsiyasining boyib borishi ham o'qituvchi va o'quvchilar orqali amalga oshirilishi ommaviy tarbiyada muhim ahamiyat kasb etadi. Maktab o'lkashunoslik muzeylariga faqat tarix sohasi mutaxassislarigina emas, balki geografiya, biologiya, adabiyot, zoogeografiya, botanika kabi soha o'qituvchilari ham rahbarlik qilishi mumkin. Maktab o'lkashunoslik muzeyiga rahbarlik orqali faol yoshlar bilan sinfdan tashqari, mustaqil topshiriqlar shaklida fondlarni boyitishga, yoshlarni esa o'lka tarixi va madaniyatini chuqurroq o'rganishga muvoffaq bo'linadi[4].

Yuqorida keltirib o'tilgan fakt va mulohazalardan maktablar va ular huzuridagi o'lkashunoslik muzeylarining maqsad va vazifalarini bilib olish mumkin. Quyida Buxoro viloyati maktablaridagi o'lkashunoslik muzeylarini tavsiflashga harakat qilamiz. Buxoro viloyatida 2019-2020-yillarda 533 ta maktab faoliyat ko'rsatgan bo'lib, ularda 323844 nafar o'quvchi tahsil olgan. Ularning hammasida ham muzey yoki ekspozitsiya tashkil etilmagan. Tashkil etilgan maktablardagi o'lkashunoslik muzeylarini umumiy xususiyatiga ko'ra, tarixiy-etnografik mazmunda ekanligini ko'rish mumkin. Ayrim hollarda o'simliklar va jonivorlar ekspozitsiyaga qo'yilganligini kuzatish mumkin [5]. Ayrim maktablardagi o'lkashunoslik muzeylari jonkuyar, o'z ustida izlanuvchan ustozlarning shaxsiy tashabbusi bilan, ayrimlari esa jamoaviy ishlash natijasida vujudga kelgan. Ammo maktab o'lkashunoslik muzeylarining deyarli barchasi uchun xos bo'lgan kamchilik inventar va kirim kitobining yo'qligi hisoblanadi. Shuningdek, ayrim maktablarda alohida xona tashkil etilmaganligi, stelajlarning yetishmasligi kabi qator muammolar kuzatiladi.

Muhokama va natijalar. Buxoro viloyatidagi mavjud umumiy o'rta ta'lim maktablarida tashkil etilgan o'lkashunoslik muzeylaridan deyarli barchasi o'rganib chiqildi. Biz o'rganib chiqqan muzeyga ega maktablarning aksariyatida muzeylar tashkil etilgan. Ammo ularning hammasini ham muzey yoki ekspozisiya deb bo'lmaydi. Jumladan, Shofirkon tumani 15-son umumiy o'rta ta'lim maktabidagi o'lkashunoslik muzeyi o'qituvchi Sayfiddin G'afforovning sa'y-harakatlari bilan 1987-1988-yillarda tashkil etilgan[6]. Muzey bugungi kunda shu insonning qizlari Dilrabo G'afforova va Fotima G'afforovalar tomonidan yuritilmoqda. Muzeyda mahalliy aholining xo'jalik hayoti, turmush tarzi, madaniyatiga oid ko'plab ashyolar qo'yilgan bo'lib, ular quyidagi tartibda guruhlashtirilgan. 1. Yog'och buyumlar. 2. Kulolchilik buyumlari. 3. Miliy liboslar. 4. Temir va mis buyumlar. 5. Musiqa asboblari kabi guruhlardan iborat. Muzey bir xonadan iborat bo'lib, $5 \times 10 = 50 \text{ m}^2$ ni tashkil etadi. Ushbu maktabda joylashgan ko'rgazmani 10 ta sopol idish, milliy liboslar (2 ta ayollar libosi, yaktak, jamalak, do'ppi, kovush qolipi) 3 dona ayollar taqinchog'i, ip yigirish dastgohlari, mis ko'zalar, omoch, poza, qulf, taqa, egar-jabduq, cho'mich, qoshiq, nonpar-tikanj tashkil qiladi. Tashkilotchi Sayfiddin G'afforovning surati ham keyinchalik ekspozisiyaga qo'yilgan. Muzeyning qisqacha tarixi kirish joyidan o'ng tomondagi lavhada aks etirilgan. Maktab muzeylarining deyarli barchasi uchun xos xususiyat bu ularning ma'lum bir mavzu yoki g'oyaga yo'naltirilmaganligi, biror bir ekspozisiyani to'la shakllantira olmaganligida deb hisoblash mumkin[7].

Xuddi shunday muzeylardan biri Qorovulbozar tumani 8-IDUMda 2011-yilda tashkil etilgan. Uni shakllantirishda maktab o'quvchilarining turli tanlovlarda qo'lga kiritgan sovrinlari, mahalliy aholidan hudud tarixiga oid ma'lumotlarning yig'ilishi asos bo'lib xizmat qilgan. Muzeyning shakllanishida maktab direktori Sh.Hotamov, tarix fani o'qituvchilari G.Sodiqova, N.Xudoyberdiyev, J.Rustamov, Sh.Nosirovlarning xizmatlari katta [8].

Qorovulbozor XTBga qarashli 8-IDUM muzeyi maktabning ikkinchi qavatida joylashgan va to'rtta bo'limdan iborat. Birinchi bo'lim, sopol idishlar bo'limi bo'lib, unda XX asr boshlari va o'rtalarida yaratilgan sopol buyumlar, ko'za, tovoq, kosa, choynak-piyola, sirlangan idishlar mavjud. Shuningdek, bu bo'limda temirdan va misdan tayyorlangan uy-ro'zg'or buyumlari idish, oftoba, qozon, lagan, pichoqlar saqlanadi.

Ikkinchi bo'lim "Numizmatika bo'limi" bo'lib, Buxoro amirligi davriga oid kumush va mis tangalar, sobiq SSSR davriga oid tangalar, XX asrning 90-yillariga oid MDH davlatlari tomonidan chiqarilgan tanga va qog'oz pullar qo'yilgan.

Uchinchi bo'lim "Etnografiya bo'limi" deb nomlangan bo'lib, Qorovulbozor tarixi va madaniyatini aks ettirgan ayollar va erkaklarning patdo'z va zardo'zi kiyimlari, shuningdek, Qorovulbozorda yashab kelgan qozoqlarning milliy kiyimlari qo'yilgan.

To'rtinchi bo'lim "Konstruktiv bo'lim" deb nomlangan va unda maktab tashkil topgandan buyon unda tahsil olgan o'quvchilar tomonidan tayyorlangan turli maketlar, Minorai kalon (yog'ochdan tayyorlangan), 8-IDUM maketi va boshqalar saqlanadi[9].

Buxoro shahar 6-umumiy o'rta ta'lim maktabi shahardagi zamonaviy ta'lim beruvchi maktablardan biri bo'lib, uni tarix maktabiga aylanishi 1998-yil 27-iyundagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori bilan amalga oshirilgan[10]. Ayni maktab ochilgan vaqtdan boshlab, maktab muzeyi ham shakllantirila boshlangan.

Muzey aholi tomonidan topilgan va maktabga berilgan xo'jalik buyumlari - sopol, metal, numizmatik, etnografik ashyolardan iborat. Muzeyda XIX asrning oxiri - XX asr o'rtalariga oid etnografik ashyolar salmog'i yuqoriligini ko'rishimiz mumkin. Numizmatika bo'limini turli davrlarga oid tanga va qog'oz pullar tashkil etadi. Maktab o'lkashunoslik muzeyi Buxoro shahar tarixini aks ettiruvchi turli ekspонатlarga boyligi bilan boshqa maktab muzeylaridan farq qiladi. Aslida tarixga ixtisoslashgan bu maktab muzeyiga yuqori talablarni qo'yilishi mumkin. Muzeyda inventar kitob bo'lmasa-da, tashrif buyuruvchilar fikr-mulohazalari uchun maxsus daftar tashkil qilingan. Maktab 1927-yil qurilgan tarixiy binoda joylashganligi sababli, ko'plab sayyohlar, hurmatli mehmonlar tashrif buyurgan va o'z fikrlarini maxsus daftarda yozib qoldirgan[11].

Jondor tuman XTBga qarashli 37-umumiy o'rta ta'lim maktabi tumandagi o'ziga xos tarixga ega maktablardan biri bo'lib, dastlab Buxorcha qishlog'ida 1938-yilda Hakimov Xalil xonadonida tashkil etilgan. Maktab 1940-yilda Ibn Sino (sobiq Kommunizm kolxozi) kolxozi mehmonxonasiga ko'chirilgan. Maktab o'z binosiga 1958-yilda ega bo'lib, uni qurish ishlari hashar yo'li bilan amalga oshirilgan. Maktab binosi uchun ikkita g'ishtlik va bitta yog'ochdan bo'lgan o'quv binolari qurilgan. O'sha vaqtda ushbu binolar 220 o'quvchiga ta'lim-tarbiya berishga mo'ljallangan. Zamonaviy bino 2008-2009-yilda qurilgan va shu vaqtgacha ekspozitsiyaviy xarakteriga ega bo'lgan muzey maktabning yangi binoga ko'chib o'tishi tantanalarida o'qituvchilar, o'quvchilar va qishloq aholisi sa'y-harakati bilan o'lkashunoslik muzeyi

ko'rinishiga kelgan. Maktab muzeyi sopol buyumlar, kashtachilik va zardo'zlik, metal buyumlar kabi bo'limlardan iborat. Muzeyning o'ziga xos xususiyati shundaki, unda alohida qo'g'irchoqlar bo'limi ham tashkil etilgan[12]. Bu kabi bo'limni mavjudligini boshqa maktablarda deyarli uchratmadik. Ayrim maktab o'lkashunoslik muzeylarida qo'g'irchoqlar etnografiya bo'limining alohida eksponatlari sifatida yakka holda namoyishga qo'yilgan.

Jondor tuman XTBga qarashli 1-sonli umumta'lim o'rta maktabida ham o'lkashunoslik muzeyi tashkil etilgan bo'lib, ushbu muzey tumandagi boshqa shu turdagi o'lkashunoslik muzeylarining qadimiysi desak mubolag'a bo'lmaydi. Muzeyni dastlab 1987-yilda maktabning tarix fani o'qituvchisi Rajabov Olim Saidovich tashabbusi bilan tashkil etilgan. Hozirgi kunda ushbu muzeyni Mamlakat Xadjamuratovna Jumayeva boshqarib kelmoqda[13].

Buxoro shahar XTBga qarashli 9-umumiy o'rta ta'lim maktabida tarix fani o'qituvchisi Jo'rayeva Nigora tomonidan tarixiy burchak (ko'rgazma) tashkil qilingan. O'ziga xos jihati, maktab Maryam Yoqubova nomiga qo'yilgan va ko'rgazma milliy san'atga ixtisoslashgan[14].

G'ijduvon tuman XTBga qarashli 7-umumiy o'rta ta'lim maktabiga 1930-yilda asos solingan. Maktab 2017-yilda zamonaviy yangi binoga ega bo'ldi. Maktab muzeyi sopol, metal, numizmatika, etnografik bo'limlardan iborat. To'quv dastgohi, urchuqlar, milliy liboslar, numizmatik ashyolar tashrif buyuruvchining diqqatini o'ziga jalb qilmasdan qolmaydi[15].

Vobkent tumani XTBga qarashli 23-maktab Xayrabot qishlog'ida joylashgan bo'lib, 1933-yilda tashkil topgan. 1986-yilda maktabning tarix fani o'qituvchisi Baxtiyor Aslonov tashabbusi bilan tumanda dastlabki o'lkashunoslik muzey tashkil etilgan. Muzey bo'limlari va ashyolari viloyatdagi shu turdagi muzeylar uchun xarakterli bo'lib, boshqa maktablardagi muzeylardan farqli jihati sifatida mahalliy teriga ishlov berish va charmdan ishlangan mahsulotlarning mavjudligi bo'lib hisoblanadi[16].

Maktab o'lkashunoslik muzeylarida mahalliy yodgorliklar, ular orqali yosh avlodga o'lka tarixini tushuntirib berish, har bir yodgorlik xususida g'amxo'rlik qilish, ularni asrab-avaylashda maktablarda o'lkashunoslik ishini olib boruvchi o'qituvchilar faoliyati muhim hisoblanadi[17]. Ularning tashabbuslari bilan o'quvchilarda keng dunyoqarash, ertangi kunga ishonch, tarixga, milliy madaniyatga hurmat, boy merosni asrab-avaylash tuyg'ulari shakllantiriladi. Yoshlarni ma'naviy barkamol qilib tarbiyalashda, o'lka tarixini o'rgatish, shuningdek, mahalliy sharotdan kelib chiqib, maktab muzeyini boyitishga chorlash kabi targ'ibot ishlari ularni o'z yurti, o'lka tarixiga qiziqishini ortishiga sabab bo'ladi. Bu esa o'quvchilarni bilimga intilishlariga ham sabab bo'ladi.

Maktablarda tashkil etilgan muzeylar, asosan, o'lkashunoslik xususiyatlarini o'zida aks ettirib, ularda tarix, geografiya, botanika, til va adabiyot fanlariga oid ma'lumotlar jamlangan. Maktab muzeylarida o'lka tabiati, tarixi, aholining mashg'ulotlari, madaniyati, etnografik o'ziga xosligi, joy nomlari, ayrim holatlarda arxeologik ahamiyatga ega bo'lgan eksponatlarni uchratish mumkin[18].


Xulosa qilib aytish mumkinki, maktab o'lkashunoslik muzeyi ta'lim va tarbiya bilan bog'liq qator ijobiy xususiyatlarga ega bo'lsa-da, Buxoro viloyati maktablarida tashkil etilgan o'lkashunoslik muzeylari kamchiliklardan ham xoli emas. Avvalo, maktab o'lkashunoslik muzeylarining deyarli barchasida inventar va kirim kitoblari yaratilmagan, muzeylarni tashkil etish qoidalariga amal qilinmagan, ko'pgina maktablarda muzey uchun alohida xonalar ajratilmagan, ayrim maktablarda eksponatlar betartib qo'yilgan. Maktab o'lkashunoslik muzeylarini ta'lim va tarbiyadagi o'rni va rolini ahamiyatini inobatga olib bu masalaga mas'ullar diqqatini tortish lozim deb hisoblaymiz. Kelajakda bunday muzeylarni ochishda, albatta, muzeyshunos mutaxassis olimlar jalb qilinsa, ushbu muzeylarning ahamiyati va mavqeyi yanada oshgan bo'lar edi.

ADABIYOTLAR:

1. Меджидова Ч.М. Школьный музей как фактор формирования гражданской позиции старшеклассников. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – Махачкала, 2006. – С. 12.
2. Саидкаримова З.С. Мактаб ўлкашунослиги. – Тошкент, 1999. – Б. 5.
3. Элькин Г.Ю., Огрызко З.А. Школьные музеи. Пособие для учителей. – М.: Просвещение, 1972. – С. 6.
4. Леонов Е.Е. Культурно-образовательная и коммуникативная деятельность школьных музеев Кемеровской и Новосибирской областей (2000-2011 гг). Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата культурологии. – Кемерово, 2012. – С. 11.

HISTORY

5. <https://kun.uz/news/2019/12/24/qaysi-viloyatlarda-maktablar-soni-eng-kam-ekani-malum-boldi>.2023 yil.27.03
6. Dala tadqiqoti G'afforov S. bilan 2019-yil.12-maydagi shaxsiy muloqot.
7. Dala tadqiqoti G'afforova F.S.bilan 2021-yil 22-maydagi shaxsiy muloqot.
8. Dala tadqiqoti Mahmudov N.bilan 2019-yil 17-avgustdagi shaxsiy muloqot.
9. Dala tadqiqoti Nosirov Sh.O'. bilan 2022-yil 23-sentabrdagi shaxsiy muloqot.
10. Buxoro shahridagi tarix faniga ixtisoslashgan 6-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 27 iyuldagi 315-son li qaroriga asosan tashkil etilgan. Bu haqda to'liqroq qarang. <https://lex.uz/docs/813643>.2023 yil.28.04
11. Dala tadqiqoti Rashidova L.U.bilan 2022-yil 27-oktabrdagi shaxsiy muloqot.
12. Dala tadqiqoti Jondor XTBga qarashli 37-umumta'lim maktabi tarix fani o'qituvchisi B.R.Shodiyev bilan 2023 yil 23 yanvardagi shaxsiy muloqot.
13. Dala tadqiqoti Rajabova M.O.bilan 2023 yil 24 martdagi shaxsiy muloqot.
14. Dala tadqiqoti Buxoro shahar XTBga qarashli 9-umumiy o'rta ta'lim maktabi tarix fani o'qituvchisi Jo'rayeva N. bilan 2022 yil 27 sentyabrdagi shaxsiy muloqot.
15. Dala tadqiqoti Muqimov Q.N. bilan 2017 yil 27 avgustdagi shaxsiy muloqot.
16. Dala tadqiqoti Xalilov J.N. bilan 2022 yil 27 dekabrdagi shaxsiy muloqot.
17. Набиев А. Тарихий ўлкашунослик. (Ўлкани ўрганишининг асосий манбалари). – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – Б. 299.
18. Ochildiyev F.B. Tarixiy o'lkashunoslik. – Toshkent: «Donishmand ziyosi», 2020.- B.5.



**"SCIENTIFIC REPORTS
OF BUKHARA STATE
UNIVERSITY"**

The journal was composed
in the Editorial and
Publishing Department of
Bukhara State University.

Editorial address:

Bukhara, 200117
Bukhara State University, main
building, 2nd floor, room 219.
Editorial and Publishing
Department.
[https://buxdu.uz/32-buxoro-
davlat-universiteti-ilmiy-
axboroti/131/131-buxoro-davlat-
universiteti-ilmiy-axboroti/](https://buxdu.uz/32-buxoro-davlat-universiteti-ilmiy-axboroti/131/131-buxoro-davlat-universiteti-ilmiy-axboroti/)
e-mail:
nashriyot_buxdu@buxdu.uz

Printing was permitted
29.10.2024 y. Paper format
60x84,1/8. Printed in express
printing method. Conditional
printing plate – 35,30.
Circulation 70. Order № 30.
Price is negotiable.

Published in the printing house
"BUKHARAHAMD PRINT" LLC
Address: Bukhara,
K.Murtazayev street, 344